

“AMALIY EKONOMETRIKA” FANIDAN ELEKTRON O‘QUV  
RESURSINI YARATISH

TATU SF AKT-20-01 guruh talabasi

NAJMIDDINOVA LAZIZA KAMOLIDDIN QIZI

**Annotatsiya:** Maqola “Amaliy ekonometrika” fanidan o‘quv-uslubiy materiallarni elektron shaklda tashkil etish muammosini yoritib beradi. Asosiy e’tibor bu zamonaviy texnologiyalarni o‘qitish jarayonida qo‘llash imkoniyatlari va uning samaradorligiga qaratilgan. Ushbu resurs o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishlarini ta’minlaydi va ochiq manbali darsliklardan foydalanish imkonini beradi.

**Kalit so‘zlar:** elektron o‘quv resursi, uzluksiz ta’lim, amaliy ekonometrika, AutoPlay, ta’lim oluvchi, mustaqil ta’lim.

**Аннотация:** В статье освещается проблема организации учебно-методических материалов по предмету «Прикладная эконометрика» в электронном виде. Основное внимание уделяется возможностям использования современных технологий в учебном процессе и его эффективности. Этот ресурс обеспечивает самостоятельное обучение учащихся и предоставляет доступ к учебникам с открытым исходным кодом.

**Ключевые слова:** электронный образовательный ресурс, непрерывное образование, прикладная эконометрика, AutoPlay, обучающийся, самостоятельное обучение.

Axborot texnologiyalari sohasi jadal sur’atlar bilan rivojlanib, takomillashib borayotgan bugungi kunda ta’limni axborot texnologiyalari asosida tashkil etish, uning mazmunini talabalar ongiga to‘laqonli singdirish dolzarb muammo sifatida ko‘tarilmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida o‘qitishning muammoli usuli axborot-retseptiv va reproduktiv metodlari bilan birgalikda keng qo‘llaniladi. Bu muhitda elektron ta’lim resurslari ta’lim mazmunini taqdim etish, talabaning bilish faoliyatini boshqarish va nazorat qilish vositalari sifatida foydalaniladi. Shu munosabat bilan ta’lim muassasalari o‘quv dasturlariga mos zamonaviy dizayn talablari asosida elektron ta’lim resurslarini yaratish lozim bo‘ladi. Bu jarayonda ayni o‘quv materiallari bir qancha vositalar bilan taqdim etilishi mumkin. Masalan o‘quv materiallari nashr, audio, video, CD-disklar ko‘rinishida bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni (2017-yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli) ning maqsad va talablaridan kelib chiqqan holda hozirgi kunda uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar milliy ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirishga, zamon talablari bilan uyg‘unlashtirilgan, jahon andozalari darajasiga mos “milliy modelni” hayotga tadbqiq qilishga,

ma`naviyatimizni yanada yuksaltirishga qaratilgan. Shuningdek, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va foydali aloqalarni rivojlantirish orqali kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklarni yo'qotishga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni imzoladi [1,2].

Axborot kommunikatsion texnologiyalari va matematik usullar boshqarishda, iqtisodiyotda, tijorat, ilmiy tadqiqotlarda, ta'limda, moliya va inson faoliyatining boshqa sohalarida qo'llanilishining rivoji axborotlashtirish va umuman, jamiyat rivojini belgilovchi yo'nalish hisoblanadi. Hozirgi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ta'lim tarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish borasida muhim chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama yetuk barkamol, mustaqil fikrlaydigan va xalqaro standartlar darajasiga javob beradigan kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada kadrlar tayyorlash va uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilishning huquqiy asoslari yaratilib, bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda [6].

Fanning elektron o'quv resurs deganda, Davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan talablar asosida talabalar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni kompetentlik darajasida rivojlantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan elektron ko'rinishdagi o'quv-metodik manbalar, didaktik vositalar va materiallar, mezonlarini o'z ichiga oladi.

Hozirgi globallashuv davrida internet tarmog'i orqali real vaqt tizimida o'qitish tezlik bilan rivojlanib borayotgan ta'lim olish turlaridan biri hisoblanmoqda. Elektron ta'lim tizimi ixtiyoriy masofadan hech bir to'siqlarsiz ta'lim berish va ta'lim olish imkoniyatini yaratadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, an'anaviy ta'lim tizimiga nisbatan real vaqt tizimidagi masofaviy ta'lim tizimida o'qitish samaradorligi yuqoriroqdir. Real vaqt tizimidagi masofaviy o'qitish tizimida video ma'ruzalardan foydalanish eng samarali o'qitish usulidir. Bu albatta ta'lim olish samaradorligini yanada oshiradi va yetuk kadrlar tayyorlashga zamin bo'ladi degan fikrdaman [4,5].

O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'ziga xos afzalliklarga ega. U talabalarni mantiqiy fikrlashga, fanga ilmiy va ijodiy yondashishga o'rgatadi, o'quvchilar uchun o'quv

mavzularini oson o'zlashtirishiga, ilmiy dunyoqarshining shakllanishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi, bilimlarni mustahkam egallashga yordam beradi, his tuyg'ularga ta'sir etgan holda mashqatli aqliy faoliyat natijasida fanga va kasbga nisbatan muhabbat uyg'otadi. Shunga ko'ra, ta'kidlashimiz mumkinki, talabalarning ijodiy faolligi va o'quv faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi fanlardan elektron ta'lim resurslari samaradorligiga va undan foydalanib qiziqarli dars o'tilishiga zamin yaratadi. Bunda o'quvchilar mavzularni mustaqil o'rganish malaka va ko'nikmalarini egallaydilar, amaliy va nazariy maslalani yechadilar. O'rgatuvchi, namoyishli, multimediali, bilimni nazorat qiluvchi, o'quvchilar bilimni baholovchi kompyuter texnologiyalarini dars jarayoniga tatbiq qilib, elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanib dars o'tish o'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlarini yanada rivojlanishiga olib keladi.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlarini samarali tashkil qilishda turli axborot ta'lim resurslarni yaratishga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Chunki, mustaqil ta'lim asosan ta'lim oluvchining mustaqil o'rganishiga asoslangan o'quv faoliyati hisoblanadi. Hozirgi davrda mustaqil ta'lim uchun axborot ta'lim resurslari yaratishda zamonaviy axborot texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontseptsiyasida elektron darslikka quyidagicha ta'rif berilgan: "Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi". Demak, elektron darslik yaratishning asosiy maqsadi mustaqil ta'lim olishga qaratilar ekan.


"AutoPlay" dasturdan elektron o'quv qo'llanma komponentalarini yaratish algoritmini ko'rib o'tamiz.

"AutoPlay" dasturini ishchi stoldagi yorliq'i yordamida ishga tushiramiz.




Yorliq ustiga sichqonchanning chap tugmasini bosib murojaatni amalga oshirganimizda, yangi ochilgan oynada bizga quyidagicha variantlar taklif etiladi,


yangi xujjat yaratishimiz, oxirgi murojaat qilingan hujjatga murojaat qilishimiz va saqlangan hujjatni chaqirib olishimiz mumkin bo'lgan oyna ochiladi.



«Create a New Project» bandidan yaratayotgan platformamizning shablonini tanlaymiz.



Biz bu oynadan "Blank Project" bandini tanlab davom etamiz. Va quyidagi oyna hosil bo'ladi:



Biz har bir bandni yaratib olganimizdan so'ng, quyidagicha oyna hosil bo'ladi:



“Page” bo‘limidan Add buyrug‘ini bosib yangi sahifa hosil qilib olamiz va ishimizni davom ettiramiz.

Elektron o‘quv resursi talablariga javob bergan holda resursimizni yakunlaymiz hamda o‘zimizning yangi g‘oyalarimizni ham birgalikda uyg‘unlashtirib “Amaliy ekonometrika” fanini o‘quvchi-talabalar oson o‘zlashtirishlari uchun ularga zamin yaratib beramiz.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>.
3. <https://m.kun.uz/uz/news/2019/10/09/shavkat-mirziyoyev-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-rivojlantirish-konsepsiyasini-tasdiqladi>.
4. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
5. X.X.Muratov, Sh.A.Yusupova. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida dars mashg‘ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash.
6. “Ekonometrika asoslari” fanidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma – Toshkent 2019.
7. <https://fayllar.org/mavzu-autoplay-media-studio-dasturi-imkonyati.html>.